Tijorat banklari aktivlari diversifikatsiyasining nazariy ahamiyati.....	1143
O'ktamova Nozima Narzulla qizi	
Tijorat banklarida yangi masofaviy bank xizmat turlarini rivojlantirish.....	1146
Umarov Abdulquddus Abdilxatovich	
Некоторые вопросы эконометрической оценки CES – функций и их практическое применение в экономических задачах.....	1151
Шадиева Гулнора Мардиевна, Усманов Фарзод Шохрухович	
Использование искусственного интеллекта в спортивной индустрии.....	1158
Усманова Дилфузахон Иброхимовна	
The Role and Significance of Internal Audit as an Effective System of Internal Control in Business Entities.....	1163
Po'latov Sherzodbek Oybek o'g'li, Farmonov Ilhomjon Iqboljon o'g'li	



Qishloq xo'jaligini barqaror rivojlantirishda investitsiyalardan foydalanishni takomillashtirish (Andijon viloyati misolida)	1168
Xolmatov Sanjarbek Xojimatovich	
O'zbekiston temir yo'l transport tizimi rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari	1174
Qilichev Umid Ibadullayevich	
Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi sharoitida raqamli banklar resurslarini oshirish choralari	1181
Xamraqulova Gulnozaxon Faxriddin qizi	
O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari kredit foiz stavkasini muvofiqlashtirish masalalari	1185
Jumayev Muzaffar Mahmud o'g'li	
O'zbekistonda Islom banklari faoliyatini tashkil etishning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati	1191
Vasiyev Alisher Samiyevich, Sayfullayev Sirojiddin Soli o'g'li	
Islom iqtisodiyotining mohiyati	1197
Sayfullayev Sirojiddin Soli o'g'li	
Budjet mablag'larini taqsimlanishi va maqsadli sarflanishida inson kapitalidan foydalanish va jamoatchilik nazoratining samaradorligi	1201
G'ofurov Bekzod Fayzulla o'g'li	
Maxsus iqtisodiy zonalar investitsiya muhiti jozibadorligini oshirishda tarif va notarif mexanizmlaridan foydalanish imkoniyatlari	1207
Ja'sur Umirzoqov Artiqboy o'g'li	
Перспективное развитие промышленной кооперации между странами	1212
Назарова Раъно Рустамовна, Жартай Жанибек Маратулы	
Soliqlar yig'iluvchanligini oshirishga ta'sir etuvchi omillar	1218
Berdiyeva Uguloy Abduraxmanovna	
Ta'lim sifatini ta'minlash oliy ta'lim xizmatlari bozorini rivojlantirishning asosiy omili	1222
Nematov Inatillo Ubaydullayevich	
Aholiga ko'rsatiladigan bank xizmatlarini takomillashtirish	1228
Umurzakova Adiba Ochilovna	
Tijorat banklari resurslari shakllanishining manbalari va yo'llari	1232
Raxmanov Ilxom Xurramovich	
Факторы развития культурного туризма в Узбекистане	1238
Пулатова Сурайё Юлдашевна	
Пути эффективного использования внутренних инвестиций в национальной экономике	1242
Рафиева Зарина Хусановна	
Development of the Country's Economy Through the Development of the Stock Market in Developing Countries	1246
Akhmedov Doniyorbek	
O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotini rivojlanishi va uning asosiy yo'nalishlari	1250
Azizova Manzura Ibragimovna	
The theoretical importance of product cost reduction in industrial production	1254
Dilfuza Baxramovna Safarova	
Fond bozorlarining tashkil etilishi va rivojlanish tendensiyalari	1261
Shamsiyev O'ktam Sayfitdinovich	
Mamlakatda davlat tibbiyot muassasalarining tutgan o'rni va ularni rivojlantirish yo'nalishlari	1266
Sultonova Mushtariy Abdulabbosovna	
Obligatsiyalar bozorida banklarning ishtiroki va ahamiyati	1272
Xushvaqov Islombek Muxammadi o'g'li	
Milliy iqtisodiyotimizda investitsiya portfelini shakllantirishning nazariy asoslari	1277
Ibragimov Gafurjan Axmetovich	
Kompaniyalarning tashqi savdo faoliyatini moliyalashtirishning nazariy asoslari va xorij tajribasi	1282
Ibragimov Mansur Axmedovich	
Mahalliy byudjetlar xarajatlari ijrosining samaradorligini oshirish masalalari (Jizzax viloyati misolida)	1286
Mamayusupov Omonulla Mamatqulovich	
Ключевые факторы успеха в мотивации и управлении проектными командами	1294
Мансурова Севара Мансуровна	
Mehmonxona biznesida CRM tizim xizmatlarini loyihalash	1297
Ishanxodjayeva Dilfuza Erkinovna	

ZAMONAVIY XIZMAT KO'RSATISH BOZORI: XALQARO TENDENSIYALAR VA UY-JOY FONDI MUAMMOLARI SARHISOBI



Sanakulova Barnogul Rizakulovna

Iqtisod fanlari doktori, Oriental universiteti
iqtisodiyot kafedrası professori



Berdiyeva Dilfuza Axatovna

I. f.f.d. (PhD), Toshkent arxitektura
qurilish universiteti "Menejment"
kafedrası mudiri, dotsent

Annotatsiya: Zamonaviy xizmat ko'rsatish bozori: xalqaro tendensiyalar va uy-joy fondi muammolari sarhisobi, jumladan, ko'p kvartirali uylarni boshqarish va ularga xizmat ko'rsatishning aniq bozorini shakllantirishni tubdan yaxshilash, aholi-ning ko'p xonadonli uylarini saqlash va mukammal ta'mirlashdan manfaatdorligini oshirish, boshqaruv servis kompaniyalari hamda shirkatlarning nufuzini, tashkiliy va moliyaviy mustaqilligini hamda faoliyati samaradorligini oshirish hisoblanadi. Shuningdek, ularga xizmat ko'rsatuvchi professional va boshqaruv kompaniyalari faoliyati muvoqligini ta'minlash bo'yicha taklif va tavsiyalar berishdan iborat.

Kalit so'zlar: Uy-joy fondi, shirkatlar, uy-joy fondi ekspluatatsiyasi, mukammal ta'mirlash, imtiyozlar, kreditlar, muhandislik kommunikatsiyalari va jihozlari, zamonaviy xizmat ko'rsatish bozori, xalqaro tendensiyalar, professional boshqaruv kompaniyalar.

Abstract: The modern service market: a summary of international trends and problems of the housing stock, including the fundamental improvement of the formation of a clear market for the management and servicing of multi-apartment buildings, increasing the interest of the population in the maintenance and excellent repair of multi-apartment houses, the influence of management service companies and companies, organizational and increasing financial independence and operational efficiency. It is also to provide suggestions and recommendations on ensuring the appropriateness of the activities of professional and management companies serving them.

Key words: Housing stock, companies, housing stock operation, excellent repair, benefits, loans, engineering communications and equipment, modern service market, international trends, professional management companies.

Аннотация: Современный рынок услуг: краткий обзор международных тенденций и проблем жилищного фонда, в том числе кардинальное улучшение формирования четкого рынка управления и обслуживания многоквартирных домов, повышение заинтересованности населения в содержании и отличном обслуживании, ремонт многоквартирных домов, влияние управляющих сервисных компаний, повышение финансовой независимости и операционной эффективности. Также внесены предложения и рекомендации по обеспечению целесообразности деятельности обслуживающих их профессиональных и управляющих компаний.

Ключевые слова: Жилой фонд, компании, эксплуатация жилого фонда, отличный ремонт, льготы, кредиты, инженерные коммуникации и оборудование, современный рынок услуг, мировые тенденции, профессиональные управляющие компании.



KIRISH

O'zbekistonda yashil iqtisodiyotni rivojlantirish amalga oshirilayotganislohotlarning ustuvor yo'nalishlaridan biri uy-joy fondiga xizmat ko'rsatish sifatini oshirish orqali ularga xizmat ko'rsatuvchi bozor raqobatbar-doshligini ta'minlash hisoblanadi. Asosiy maqsad aholining uy-joyini boshqarish va xizmat ko'rsatish talab-lariga va me'yoriy-huquqiy standartlarga javob beradigan ijtimoiy himoya tizimini tashkil qilishdan iborat. Bu o'z navbatida uy-joy kommunal xo'jaligi korxonalari, jumladan, boshqaruv kompaniyalari va uy-joy mulkdorlari shirkatlari faoliyati bilan chambarchas bog'liq. Ma'lumki, uy-joy xo'jaligi insonlarning uy-joy fondi bilan bog'liq yashash sharoitlarini yaxshilash, uylarning qulayligini va turmush darajasini oshirish, uy-joy fondining eksplua-tatsiyasini yaxshilash hamda umurboqiyiligini saqlab qolish bo'yicha choralarni amalga oshirish, aholiga xizmat ko'rsatishni rivojlantirish, shahar va boshqa aholi punktlarini markazlashgan suv hamda gaz, elektr ta'minoti bilan ta'minlash va boshqalardan iboratdir. Boshqaruv kompaniyalari va shirkatlar faoliyati samarasi ularoq, maishiy sharoitlarni ketma-ketlik bilan yaxshilab, aholining moddiy va ma'naviy darajasini ta'minlab turish bilan birga, milliy iqtisodiyotning boshqa tarmoqlarida mehnat samaradorligining o'sishiga va nihoyat butun ish-lab-chiqarish samaradorligining o'sishiga ko'maklashadi.

Respublikada uy-joy fondi sohasida amalga oshirilayotgan aniq chora-tadbirlar pirovard maqsadi, aholi tur-mush darajasi sifatini oshirishdir. Jumladan, uy-joy fondini boshqarish, ularga xizmat ko'rsatish va ularni ta'mir-lash bo'yicha xizmatlar ko'rsatishning aniq bozorini shakllantirishni tubdan yaxshilash, aholining ko'p kvartirali uylarni saqlash va mukammal ta'mirlash manfaatdorligini oshirish, shuningdek, uy-joy mulkdorlari shirkatlari va boshqaruv kompaniyalarining o'zini-o'zi boshqarish instituti sifatida ularlarning nufuzini, tashkiliy va moliyaviy mustaqilligini oshirish hamda ular faoliyatining samaradorligini oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2006-yil 12-apreldagi "Xususiy uy-joy mulkdorlarining shirkatlarini yanada rivojlanti-rish va turar joylarga xizmatlar ko'rsatishning aniq bozorini shakllantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 64-sonli Qarori qabul qilindi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 7-noyabrdagi "Ko'p kvartirali uylarni boshqarish to'g'risida"gi O'RQ-581-sonli Qonuni asosida davlat joylar mulkdorlarining, boshqaruvchi tashkilot-lar va boshqaruvchilarning, shirkatlarning huquqlari ta'minlanishini hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilini-shini kafolatlaydi hamda ularni rivojlantirishga va mustahkamlashga ko'maklashadi. Maqsad ^[1]:

- uy-joy-kommunal sohasidagi me'yoriy-huquqiy hujjatlarni, shu jumladan, standartlarni takomillashtirish;
- ko'p kvartirali uylarda avariya vaziyatlarini bartaraf etishda ko'maklashish ularni monitoringini shakllan-tirish;
- uy-joy fondi kommunal xizmatlar haqini to'lash tizimini takomillashtirish;
- uy-joy-kommunal sohasida xizmatlar ko'rsatishda raqobatni rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish;
- soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha imtiyozlar, shuningdek, imtiyozli kreditlar berish;
- kam ta'minlangan oilalarga ko'p kvartirali uylarni saqlash bo'yicha yordam ko'rsatish;
- ko'p kvartirali uyga tutash yer uchastkalarini doimiy foydalanish huquqi asosida berish;
- ko'p kvartirali uylarni boshqarish sohasida kadrlar tayyorlashni va ularni qayta tayyorlashni amalga oshirish;
- ko'p kvartirali uylardan foydalanishning samarali tizimini yaratish bo'yicha alohida dasturlar qabul qilish va boshqa choralar ko'rish;
- uy-joylarga xizmatlar ko'rsatishda raqobat muhitini shakllantirishdan iborat.

Uy-joy fondini boshqarishning eng muhim vazifalaridan biri unga xizmat ko'rsatish va ta'mirlash bo'yicha ish-larni bajarishdan iborat. Uy-joy fondiga xizmat ko'rsatish va ta'mirlash bo'yicha ishlarni quyidagilarni qamrab oladi:

- ko'p kvartirali uydagi xonalar va umumiy foydalanish joylari va uy atrofidagi hududning sanitariya holatin saqlash;
- muhandislik kommunikatsiyalari va jihozlariga profilaktik xizmat ko'rsatish;
- muxandislik tarmoqlarini mavsumiy foydalanish sharoitlariga tayyorlash;
- joriy ta'mirlashlar, avariya holatlarini bartaraf etish;
- konstruksiyalar va tarmoqlarni kapital ta'mirlash, muhandislik tarmoqlarini almashtirish;
- uy atrofidagi hududni obodonlashtirish va boshqalar.

Bu ishlar quyidagilar tomonidan bajarilishi mumkin:

- ixtisoslashtirilgan xizmat ko'rsatuvchi yoki ta'mirlovchi tashkilotlar (pudratchilar);
- uy-joy mulkdori, uning vakolatli organi, uy-joy mulkdorlari shirkati, boshqaruv servis kompaniyalari tomonidan yollanadigan ishlab chiqarish xodimlari;
- bevosita uy-joy mulkdorlari.


ADABIYOTLAR SHARHI

Bugungi kunda uy-joy fondi boshqaruvining nazariy va amaliy muammolarini o'rganish bo'yicha ko'plab mahalliy va xorijiy olimlarning tadqiqot ishlari ham diqqatga sazovor. Jahon uy-joy fondini boshqarishni yanada rivojlantirish, shuningdek, uy-joylarga xizmat ko'rsatishni boshqarish uslubiyatini yaratishda va rivojlanishiga salmoqli hissa qo'shgan ingliz olimlari Martin Lyuks, Nora Teller, Djozeflar va boshqalar hisoblanishadi. "Bugungi kunda boshqaruv kompaniyalarning roli murakkab va professional yondashuvni talab qiladi. Bu vazifani bajarish uchun mukdor va Davlat qonunchiligi, qurilish, sog'liqni saqlash va xavfsizlik qoidalari, asosiy buhgalteriya va boshqalarni bilish talab etiladi. Ijaraga beruvchilar majburiyatlarini bajarish uchun to'lanadigan haqlarga nisbatan muvozanatli bo'lishi kerak bo'lgan professional boshqaruv afzalliklari mavjud. Professional boshqaruv kompaniyalari xizmatlarni rejalashtirish, yig'ish uchun rejalashtirilgan yondashuvni va zaxira fondlarini, ishlarni qayta tiklash va ta'mirlash jadvalarini, ishlarni tekshirish va nazorat qilishni ta'minlaydi" [5].

USLUBIYOT VA TAHLILLAR

O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 7-noyabrdagi "Ko'p kvartirali uylarni boshqarish to'g'risida"gi №581-sonli Qonuni, shu sohadaqi qator Prezident Farmonlari va qarorlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari, shuningdek, O'zbekistonni 2030 yilga qadar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish konsepsiyasi, shuningdek, "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi"da uy-joy-kommunal xo'jaligi, ijtimoiy soha obyektlari va turar joylarda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini keng joriy etish va energiya samaradorligini oshirish ya'ni "Yashil iqtisodiyot" texnologiyalarini mazkur sohaga faol joriy etish orqali 2026-yilga qadar ijtimoiy rivojlanishning ustuvor yo'nalishlaridan biri – bu qulay sharoitlarga ega bo'lgan uy-joylar qurish, yo'l transporti, ijtimoiy va muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmani modernizatsiya qilish, aholi turmush sharoitini yaxshilashni ta'minlash bo'yicha maqsadli dasturlarni amalga oshirishdan iborat. Bu esa, uy-joy xizmatlari bozori rivojlangan sharoitda uy-joy mulkdori (mulkdorlari), uy-joy mulkdorlari shirkati xizmat ko'rsatish va ta'mirlash ishlarini bajarish uchun ixtisoslashtirilgan pudrat tashkilotlarini jalb etadi. Mulkdor yoki uning vakolatli organi yoki tashkiloti qaroriga ko'ra boshqaruvchi tashkilotga boshqaruv shartnomasi asosida quyidagilar topshirilishi mumkin:

1. Mulikka xizmat ko'rsatish yoki ta'mirlash ishlari buyurtmachi vazifasini bajarishi mumkin (1-rasm).




1-rasm: Boshqaruv kompaniyasi – xizmat ko'rsatish va ta'mirlash ishlari buyurtmachisi



Birinci holatda (1-rasm) boshqaruvchi tashkilot takliflarni tanlash va pudratchini tanlash ishlarini mustaqil amalga oshiradi, o'z nomidan pudrat shartnomalarini tuzadi va u bajaradigan ishlar hajmi va sifatini nazorat qiladi, o'z hisobraqamida bajarilgan ishlar haqqini to'laydi.

Uy-joy xizmatlari bozorini rivojlantirish, xususiy uy-joy mulkdorlari shirkati xizmat ko'rsatish va ta'mirlash ishlarini o'z xodimlari kuchi bilan bajarish yoki qisqa muddatli shartnomalar asosida ijrochilar – jismoniy shaxslarni – jalb etish yo'li bilan bajarishdan manfaatdor bo'lishi mumkin. Bunday holda boshqaruvchi tashkilotga shirkat, tashkilot bilan shartnomalar tuzish uchun ishchilar (ijrochilar) nomzodlarini tanlash, ularning ishini tashkil etish va nazorat qilish vazifalari topshirilishi mumkin.


2. Uy-joy fondi mulkdori yoki xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatiga pudratchilarni tanlov asosida jalb qilishda yordam ko'rsatish.



2-rasm: Shirkat – xizmat ko'rsatish va ta'mirlash ishlar buyurtmachisi

Ikkinchi holatda (2-rasm) boshqaruv kompaniyalari mulk egalari, uy-joy mulkdorlari shirkati uchun pudratchini tanlash bo'yicha tavsiyalarni tayyorlaydi, mulkdor yoki shirkat tomonidan pudratchi tanlovini o'tkazishga yordam beradi, uy-joy fondi mulkdori (yoki shirkat) bilan pudratchi o'rtasida shartnoma tuzilishiga ko'maklashadi, pudratchi bajargan ishlar sifatini nazorat qiladi. Bajarilgan ishlar haqqini mulkdorlar yoki shirkat to'laydi. Boshqaruv xizmatlariga talablar shakllanmagan, uy-joy fondiga xizmat ko'rsatuvchi ixtisoslashtirilgan tashkilotlar cheklangan, ularning ish turlari bo'yicha yetarli darajada ixtisoslashmagan bir sharoitda, boshqaruv kompaniyalari uy-joy mulkdorlari va uy-joy mulkdorlari shirkatiga boshqarish, xizmat ko'rsatish va ta'mirlash ishlari bo'yicha xizmatlar to'plamini taklif etishi mumkin(3-rasm).

Agar tuzilayotgan boshqaruv kompaniyasi uy-joy fondiga xizmat ko'rsatish va ta'mirlash ishlarini mustaqil bajarish istagida bo'lib, tegishli imkoniyatlarga ega bo'lsa, (moddiy-texnik baza, malakali xodimlar va hakoza) tashkilot ustavida faoliyatning ushbu turlari ko'rsatilgan bo'lishi kerak.



3-rasm: Boshqaruv kompaniyasi tomonidan bajariladigan uy-joy fondi boshqaruvi, xizmat ko'rsatish va ta'mirlash ishlari




4-rasm: Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar hajmi (mlrd.so'mda) ^[6]

Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Agentligi ©2018-2022 www.stat.uz sayti ma'lumotlaridan olindi. Hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

4-rasmdan tahlillaridan ko'rishimiz mumkinki, ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlarni ko'rsatishda ko'chmas mulk bilan bog'liq operatsiyalar bo'yicha xizmatlar qiymati, korxonaning shaxsiy, xo'jalik yuritish yoki tezkor boshqaruvidagi, shuningdek, ijaraga olingan ko'chmas mulkni ijaraga berishdan olingan daromadlari o'zida aks



ettiradi. 2022-yilda ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar hajmi 9 674,3 mlrd. so'mni tashkil etdi. Xizmatlarning umumiy hajmida ularning ulushi 2,7 % ni tashkil etdi. 2021-yilga nisbatan o'sish sur'ati 111,1 % ni tashkil etgan. Ko'chmas mulklar bilan bog'liq xarajatlar yil sayin oshganini ko'ryapmiz. Ushbu xizmatlarning umumiy hajmida shaxsiy yoki ijaraga olingan ko'chmas mulkni ijaraga berish va boshqarish bo'yicha xizmatlar ulushi ustunlik qiladi – 89,5 %¹. Lekin, bu ko'rsatkichlarga nisbatan ko'chmas mulklar bilan bog'liq bajarilgan ishlar va xizmatlar hajmi, 2-rasmda ko'rsatilganidek, o'zgarishi (oshib, pasayishi)ga olib kelmoqda.



5-rasm: Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar (mln.so'm hisobida) ^[7]

5-rasm tahlili shuni ko'rsatadiki, ko'chmas mulk bilan bog'liq ko'rsatkichlar, aholi uy-joylariga ko'rsatilgan xizmatlar hajmiga to'lanadigan narxi yuqori ekanligidan dalolat beradi. Bu esa, uy-joy fondini boshqarishni yanada rivojlantirish va turar joylarga xizmat ko'rsatish bozorini rivojlantirishga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu bilan birga, xizmat ko'rsatuvchi professional kompaniyalar, pudratchi tashkilotlarning hamda uy-joy mulkdorlari shirkatlari faoliyatidan aholi noroziligini keltirib chiqaradi.

1-jadval: Hududlar bo'yicha uy-joy fondining umumiy maydoni yil oxiriga, kv.m. ^[8]

Худудлар	Регионы	Territories	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022
Ўзбекистон Республикаси	Республика Узбекистан	Republic of Uzbekistan	490 846 580	507 557 524	521 244 564	536 785 540	548 995 771	636 414 295	658 356 976
Қорақалпоғистон Республикаси	Республика Каракалпакстан	Republic of Karakalpakstan	30 005 323	35 122 521	35 100 834	31 369 416	31 542 222	32 290 012	33 562 992
Андижон	Андижанская	Andijan	30 149 511	31 053 698	31 543 971	32 026 428	32 575 537	44 691 663	51 770 626
Бухоро	Бухарская	Bukhara	26 529 249	27 411 545	29 948 385	32 225 789	33 639 423	34 374 879	34 644 151
Жиззах	Джиззакская	Jizzakh	17 958 245	18 308 218	18 656 573	19 241 466	19 935 572	24 296 356	24 852 282
Қашқадарё	Кашкадарьинская	Kashkadarya	46 809 444	50 373 289	53 137 064	54 953 364	55 202 976	55 785 911	57 336 087
Навоий	Навоийская	Navoi	18 936 232	20 755 513	21 296 750	22 103 603	22 485 235	24 352 186	25 036 415
Наманган	Наманганская	Namangan	42 860 170	40 529 755	41 333 559	44 409 017	46 887 180	49 275 478	50 263 760
Самарқанд	Самаркандская	Samarkand	53 083 225	55 535 528	56 751 521	58 026 466	59 259 326	78 362 017	79 206 796
Сурхондарё	Сурхандарьинская	Surkhandarya	31 315 901	31 710 571	32 240 064	33 115 602	33 891 683	37 747 577	37 932 073
Сирдарё	Сырдарьинская	Syrdarya	11 611 597	11 553 340	12 168 163	13 023 776	13 187 432	16 413 895	16 642 375
Тошкент	Ташкентская	Tashkent	42 515 999	42 773 606	43 695 254	45 135 094	46 980 607	48 774 790	52 266 620
Фарғона	Ферганская	Fergana	47 342 523	48 013 925	48 661 561	49 037 090	49 539 913	80 806 234	81 727 057
Хоразм	Хорезмская	Khorezm	42 501 493	43 044 768	43 516 418	45 421 101	45 729 366	46 360 163	46 776 597
Тошкент.ш	г. Ташкент	Tashkent city	49 227 668	51 371 247	53 194 447	56 697 328	58 139 299	62 883 134	66 339 144

1-jadvaldan ko'rish mumkinki, hududlar bo'yicha 2021-yilda umumiy maydoni 636414295 kv.m., 2022-yilga

1 <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/services-2>



kelib 658356976 kv.m. ya'ni 103.4 % ga oshganini ko'rishimiz mumkin. Bu esa albatta, uy-joy fondiga xizmat ko'rsatish turlarini oshishiga olib keladi. Shuningdek, uy-joy fondiga xizmat ko'rsatish bozorining rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi.

XULOSA VA TAVSIYALAR

Yuqoridagi tahlil natijalaridan aytish mumkinki, uy-joy fondini boshqarishni yanada rivojlantirish va turar joylarga xizmat ko'rsatish bozorini rivojlantirish, pudratchilarni tanlash, ularning ishlarini nazorat qilish va bajarilgan ishlarni qabul qilish sohasida quyidagi kamchiliklarga ega[6]: shirkat tomonidan pudratchilarni tanlashda faqat ular tomonidan berilayotgan narxlarga e'tibor qaratilayotganligi; pudratchining moliyaviy ahvoli, ishchi kuchi, texnikasi va tajribasiga to'liq ahamiyat berilmayotganligi; ular tomonidan taqdim etilayotgan smeta hujjatlari, unda belgilangan materiallarning sifati to'liq o'rganilmasligi; boshqaruv kompaniyalari va shirkatlar tomonidan berilayotgan buyurtmalar bank muassasalari tomonidan to'liq o'rganilmasdan, pudratchilarga ishlarni bajarish uchun shartnoma shartlariga zid ravishda oldindan 80-100 foizgacha mablag'lar o'tkazib berilayotganligi va pudratchilar tomonidan taqdim etilgan ishlarni topshirish-qabul qilish Dalolatnomasi shirkat yoki boshqa mas'ul idoralar tomonidan obyektida bajarilgan haqiqiy ishlarga taqqoslagan holda o'rganilmasdan, to'g'ridan-to'g'ri tasdiqlanishiga yo'l qo'yilayotganligi hisoblanadi.

Buning oqibatida: pudratchilarni tanlashda tanish-bilishchilik munosabatlari holatlariga yo'l qo'yilmoqda; pudratchining ishlarni bajarishga moliyaviy holati yo'qligi, ishchi kuchi yetishmasligi, materiallar arzon garovga sifatsiz keltirilayotganligi bois ishlar sifatsiz bajarilmoqda, ayrim hollarda esa ishlar bajarilmasdan tashlab ketilmoqda. Olingan mablag'lar esa talon-taroj qilinmoqda; shu obyekt uchun qilinishi lozim bo'lgan ishlar nihoyasiga yetkazilmasdan qolinmoqda; shu obyekt shirkat tomonidan takroran yangi yil Dasturiga qo'shib kiritilmoqda.

Masalaning yechimi: Dastur ishlab chiqilishidan oldin shu hududdagi barcha uy-joy fondining texnik holatlari to'liq ko'rikdan (monitoringdan) o'tkazilishi kerak; monitoring natijalari bo'yicha har bir uy-joy fondining texnik holati yuzasidan mutasaddi idoralar tomonidan Dalolatnoma qabul qilinishi kerak; obyektlarni ta'mirlash-tiklash ishlari rejalashtirilayotganda, shu obyektga sarflanayotgan materiallar va ishchi kuchining haqiqiy bahosi aniqlanishi kerak; Dastur shu hudud sektor rahbarlari, banklar, boshqaruv kompaniyalari va shirkatlar, uy-joy kommunal bo'limlari va tegishli mas'ul idoralar tomonidan to'liq o'rganilishi va so'ngra tasdiqlanishi kerak; Respublika bo'yicha ekspluatatsiya muddatini o'tab bo'lgan va ma'n'an eskirgan ko'p kvartirali uy-joylarni instrumental o'rganish va renovatsiya qilish bo'yicha reja ko'rsatkichlarini to'g'ri tashkil etish; ko'p kvartirali uylarni boshqarish tizimini takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqish.

Manba va adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 7-noyabrdagi "Ko'p kvartirali uylarni boshqarish to'g'risida"gi №581-sonli Qonuni. <https://lex.uz/docs/4586282>
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2006-yil 12-apreldagi "Xususiy uy-joy mulkdorlarining shirkatlarini yanada rivojlantirish va turar joylarga xizmatlar ko'rsatishning aniq bozorini shakllantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 64-son qaroriga (O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami, 2006-yil 15-son, 127-modda). <https://lex.uz/uz/docs/974137>.
3. O'zbekiston Respublikasining Prezidentining 2022-yil 3-dekabrda "2030 yilgacha O'zbekiston Respublikasining "Yashil" iqtisodiyotga o'tishga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-436-sonli qarori. <https://lex.uz/docs/6303230>
4. O'zbekiston Respublikasining Prezidentining 2022-yil 29-yanvarda "2022 – 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi"gi PF-60-sonli Farmoni. <https://lex.uz/docs/5841063>
5. Appointing a Managing Agent – The need, selection and working with them. Website: <http://www.justice.gov.uk/tribunals/residential-property>. The First-tier tribunal – Property Chamber. Wales: 1st Floor, West Wing, Southgate House, Wood Street, Cardiff CF10 1EW. Published September 2013. Email: rpt@wales.gsi.gov.uk Website: www.wales.gov.uk.
6. www.stat.uz – O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Agentligi-© 2016-2023. [6, 7, 8].
7. Berdiyeva D. A. Uy-joy fondidan foydalanish va uni boshqarish samaradorligini yanada oshirish / Jurnal "Moliya va iqtisod" №12(120), 2018-y. –25-30b.
8. Sanakulova B. R., Berdiyeva D.A. Uy-joy fondini boshqarishda xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlari faoliyati samaradorligini oshirish / Jurnal "Moliya" №1, 2019 y. ISSN 2010-9604. –71-79 b.
9. Berdiyeva D. A. Uy-joy fondi boshqarishni yanada rivojlantirish va turar joylarga xizmat ko'rsatish bozori/Jurnal "Moliya va iqtisod" №2, 2019-yil ISSN 2091-590X. –44-51 b.
10. Berdiyeva D. A. Uy-joy fondi moliyaviy boshqaruvida zamonaviy usullardan samarali foydalanish / Jurnal "Moliya" №5, 2021 y. ISSN 2010-9604. –119-126 b.
11. Berdiyeva D. A. Uy-joy fondi xizmat ko'rsatish bozorida boshqaruv kompaniyalar faoliyatidan samarali foydalanish / "O'zbekistonda uy-joy fondini boshqarish tizimini takomillashtirish: muammo va yechimlar" mavzusidagi Respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjuman materiallari. 2020-yil, 19-20-noyabr. –28-34-betlar.
12. <https://lex.uz/ru/docs/6600413>.

Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2023. № 11-12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.